



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 234 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari	22
<i>Ashurov Ramzidin Ramazonovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolaning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila bilan ishlashning nazariy asoslari	27
<i>Jumanova Fatima Uralovna, Allaberganova Munisa Begimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodologik asoslari	32
<i>Jo'rayeva Nargiza Tairovna, Bekbergenova Yulduz Tanirbergen qizi</i>	
Faoliyatli yondashuv asosida maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	35
<i>Ziyodullayeva Mohirabonu Ikromjon qizi</i>	
Davlat ta'lim muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ...	39
<i>Xaybatullaeva Sojidxon Ziyatullayevna</i>	
Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda integratsion yondashuv	42
<i>Kamoliddinov Mirzohid</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligi	45
<i>Kamoliddinova Dilnoza Axmadilaxanovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlari	48
<i>Nurjanova Rayxan Urazbaevna</i>	
Sinf biologiya fanini o'qitishda TIMSS topshiriqlardan foydalanish metodikasi va baholash mezonlari	52
<i>Xaitboyeva Dilorom Rustam qizi</i>	
Qandli diabet tashxisli bemorlarda shaxs tuzilmasining emotsional komponentlari	56
<i>Sadikova Umida Botirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik diagnostikani amalga oshirishning natijaviyligi	60
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Qodirova Shaxnoza Saidazim qizi</i>	
Kasbiy imij shakllanishida psixologik jihatlarining tafovutlari	64
<i>Aminova Dilnoza Orifjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining jamoa bilan ishlash jarayonida yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish	69
<i>Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishida psixologik moslashuvning tipik xususiyatlari	73
<i>Mirsaitova Guzal Baxodirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida variativ modellashirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining qo'llanilishi	76
<i>Quvvatova Mohira Hikmatillayevna</i>	
Interfaol treninglar orqali o'qituvchilarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish tajribasi	79
<i>Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyani shakllantirishning ahamiyati	82
<i>Zulayxo Nazarova, Qarshiboyeva Muxlisa Ismatullo qizi</i>	
Ijodiy qobiliyatni o'stirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar	85
<i>Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpiadalarga tayyorlashda masalalar yechish texnologiyasi 11-sinf misolida	89
<i>Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li</i>	



Bokschi qizlarni texnika taktikasini takomillashtirish.....	94
<i>Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li</i>	
Ixtisoslashtirilgan terminologiyaning asosiy lingvistik xususiyatlari	99
<i>Axmedova Dilnoza Anvarovna</i>	
Interfaol metodlar orqali zamonaviy darslarni tashkil etishning o'ziga xos tendensiyalari	102
<i>Bakirov Otabek Bo'ranovich</i>	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilishning metodologik muammolari	106
<i>D. J. Norboyeva</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalari ruhiyatiga virtual muhitning salbiy ta'siri	110
<i>Giyosov Ulug'bek Eshpulatovich, Turayeva Nigora Husniddin qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	113
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar	117
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Principles of Organising Autonomous Learning.....	121
<i>Khazratova Zukhra Mamaraimovna</i>	
Najot – ta'limda, najot-tarbiyada	124
<i>Mo'minova Manzura Mamasodiqjonovna</i>	
Educational Potential of Museum Pedagogy and Criteria for its Application in Developing Historical Thinking of Pre-Service History Teachers.....	127
<i>Niyozov Javlonbek</i>	
Landshaft dizayni vastasida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining estetik va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish	131
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna</i>	
Abdulla Avloniy pedagogik merosida shaxs psixologiyasi masalalari.....	134
<i>S. O. Mamarasulov, D. A. Egamberdiyeva</i>	
TBL metodini qo'llash orqali o'quvchilarning madaniyati va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish....	138
<i>Sodikova Oyshakhon Muxammadsodik</i>	
Pedagogik innovatsiyalarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari.....	142
<i>Soliqova Barno Sodiq qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim magistratura talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish shart-sharoitlari	146
<i>Yarmatov Shermo'min Rahmatovich</i>	
Формирование готовности родителей детей старшего дошкольного возраста к выполнению воспитательной функции в семье.....	149
<i>Атаджанова Сохиба Талиповна</i>	
Redjio pedagogik yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	152
<i>Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Otahonova Marjona</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	155
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida chet tili o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi interaktsiyaning pedagogik samaradorligi va innovatsion mexanizmlari	163
<i>Eshonqulova Umida Xolmirzayevna</i>	
MTTlarda nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi	168
<i>To'laboyeva Iqbolaxon Olimjonovna</i>	
Ta'lim jarayonidagi konfliktlar.....	173
<i>Abulova Mohigul Komiljonzoda</i>	
Talabalarining bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish	176
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	

Shaxs tuzilmasida ma'naviy intellekt: nazariy-metodologik tahlil va psixologik interpretatsiya	179
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna	
18-20 yoshli belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi jismoniy tayyorgarliklari	183
Muzafarov Muxammadali Maxsudovich	
Talabalarda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanib kasbiy madaniyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar (boshlang'ich ta'limda tarbiya fani misolida)	187
Yadgarova Surayyo	
Maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish	190
Yo'ldoshova Shahlo Shukurullo qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy tahlili	194
Yusupova Sanobar Odil qizi	
Типология научного текста: от жанровой классификации к дискурсивной модели	197
Бахтияр Катибжанович Саттаров	
Взаимодействие педагога и семьи в профилактике и преодолении стресса у детей дошкольного возраста	201
Г. С. Алиходжаева, Х. Рахимова	
Условия эффективности инклюзивного образования	206
Г. С. Алиходжаева, Л. О. Бекмуродова	
Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов	211
Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева	
Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников	216
Джалилова Феруза Намазовна	
Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni	219
Zuhriddin Azizov	
Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка (на примере госпитальной школы при детской клиники Синсиннати, США)	222
Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.	
Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста	227
Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова	
Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar	231
Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna	

BOKSCHI QIZLARNI TEXNIKA TAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti stajyor o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bokschi qizlarning texnika-taktik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi ilmiy-metodik nuqtayi nazardan yoritiladi. Muammo dolzarbligi zamonaviy boksda raqobatning keskinlashuvi, jang tempi va qaror qabul qilish tezligiga qo'yiladigan talablarning ortishi hamda ayollar boksida individual-fiziologik xususiyatlarni hisobga olgan mashg'ulot texnologiyalariga ehtiyoj kuchaygani bilan izohlanadi. Maqolada texnika va taktika tushunchalari, ularning o'zaro bog'liqligi, "musobaqaga transfer" (mashq sharoitida o'rganilgan harakatlarning jang jarayoniga ko'chishi) muammosi hamda taktik fikrlashni rivojlantirish yo'llari tizimlashtiriladi. Metodlar bo'limida nazariy tahlil, murabbiylik amaliyoti kuzatuvlari, video-tahlilga tayangan mikro-taktik modellashtirish, sparring ssenariylari, situatsion qaror mashqlari hamda ko'rsatkichlar (zarba aniqligi, kombinatsiya ulushi, himoya samaradorligi, qaror qabul qilish vaqti) asosida baholash yondashuvi bayon etiladi. Natijalar qismida taklif etilayotgan 10 haftalik o'quv-mashg'ulot modeli uchun namunaviy (illustrativ) jadval va rasmlar keltirilib, texnika-taktik ko'rsatkichlarda ijobiy siljishlar mantiqan asoslanadi. Xulosa sifatida ayollar boksida texnika-taktik tayyorgarlikni oshirish "texnika + taktika + psixologik barqarorlik + video-analitika" integratsiyasi orqali samarali amalga oshirilishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: ayollar boks; texnika-taktik tayyorgarlik; sparring ssenariysi; video-tahlil; qaror qabul qilish tezligi; kombinatsion jang; masofa nazorati; himoya samaradorligi; musobaqaga transfer; individualizatsiya.

Abstract: This paper examines the improvement of technical-tactical performance in female boxing from a scientific and methodological perspective. The relevance of the study is driven by increased competition intensity, higher bout tempo, and growing demands on decision-making speed, alongside the need for individualized training technologies that account for the physiological and psychological characteristics of women's boxing. The study systematizes key concepts of technique and tactics, clarifies their interrelation, addresses the "training-to-competition transfer" challenge, and outlines approaches to developing tactical thinking. The Methods section describes an evaluation framework based on theoretical analysis, observations of coaching practice, video-based micro-tactical modeling, sparring scenarios, situational decision-making drills, and performance indicators (punch accuracy, combination rate, defensive efficiency, and decision time). The Results section presents illustrative tables and conceptual figures for a proposed 10-week training model, logically substantiating positive shifts in technical-tactical indicators. The paper concludes that enhancing technical-tactical preparedness in female boxing is most effective through the integration of technique, tactics, psychological stability, and video-based analytics.

Key words: female boxing; technical-tactical training; sparring scenarios; video analysis; decision-making speed; combination fighting; distance control; defensive efficiency; transfer to competition; individualization.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема совершенствования технико-тактической подготовки женщин-боксеров с научно-методологической точки зрения. Актуальность исследования обусловлена усилением конкуренции в современном боксе, повышением требований к темпу боя и скорости принятия решений, а также возрастанием потребности в тренировочных технологиях, учитывающих индивидуально-физиологические особенности женского бокса. В статье систематизированы понятия техники и тактики, раскрыта их взаимосвязь, проанализирована проблема "переноса на соревнования" (перенос двигательных действий, усвоенных в тренировочных условиях, в боевую деятельность), а также обозначены пути развития тактического мышления. В разделе "Методы" представлен подход к оценке, основанный на теоретическом анализе, наблюдениях тренерской практики, микротактическом моделировании с использованием видеоанализа, сценариях спарринга, упражнениях на принятие ситуационных решений и системе показателей (точность ударов, доля комбинаций, эффективность защиты, время принятия решения). В разделе "Результаты" приведены иллюстративные таблицы и рисунки для предложенной 10-недельной тренировочной модели, логически обосновывающие положительные изменения в технико-тактических показателях. В заключение показано, что повышение уровня технической и тактической подготовленности в женском боксе эффективно достигается за счет интеграции "техника + тактика + психологическая устойчивость + видеоанализ".

Ключевые слова: женский бокс; технико-тактическая подготовка; сценарий спарринга; видеоанализ; скорость принятия решений; комбинационный бой; контроль дистанции; эффективность защиты; перенос на соревнования; индивидуализация.



KIRISH

So'nggi yillarda ayollar boksining rivojlanishi musobaqalar geografiyasi va raqobat darajasini kengaytirdi. Natijada bokschi qizlardan nafaqat kuch va chidamlilik, balki texnika-taktik moslashuvchanlik, vaziyatni "o'qish", raqibning uslubiga tez moslashish hamda qaror qabul qilish tezligi talab qilinmoqda. Boks jangida muvaffaqiyat ko'pincha birgina "ideal texnika" bilan emas, balki texnik harakatni to'g'ri paytda, to'g'ri masofada va to'g'ri ritmda qo'llash bilan belgilanadi. Shu ma'noda texnika va taktika ajralmas birlikdir: texnika – ijro mexanikasi, taktika – ijroni kontekstga mos boshqarish. Taktik tayyorgarlikning ahamiyati xalqaro boks qo'llanmalarida ham ta'kidlanadi: taktika bokschi kamroq energiya sarflab, mavjud texnik arsenalni jangda maqsadli qo'llashga yordam beradi, raqib uslubi va kuchsiz nuqtalarini hisobga olish esa reja tuzishning asosiy sharti sifatida ko'rsatiladi [AIBA, 2019, 75].

Boshqa tomondan, boks mashg'ulotlarida "jang sharoitiga ko'chirish" muammosi – ya'ni mashq paytida o'rganilgan elementlarning real sparring va musobaqada avtomatik ishlamasligi – ko'p uchraydi. Shu sababli texnika-taktikani oshirish faqat "ko'p takror" bilan cheklanmay, balki vaziyatli mashqlar, ssenariyli sparring, video-tahlil va tezkor feedback mexanizmlarini talab etadi. Ayollar boksida (xususan, yosh sportchilarda) psixologik omillar, ritmni boshqarish, himoya va qarshi zarba (kontrhujum) kombinatsiyalari, shuningdek, raund strukturasi hisobga olgan rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Amaliy qo'llanmalarda ayollar janglari raund formati va tayyorgarlik talablari qayd etilib, mashg'ulotlar boksining hujum va himoya ko'nikmalarini turli shakllarda rivojlantirishga xizmat qilishi kerakligi ko'rsatiladi [Apprentice Coach Manual, 2016, 18].

Demak, "bokschi qizlarning texnika-taktikasini takomillashtirish" mavzusi murabbiylik amaliyotida ham, sport nazariyasida ham dolzarbdur. Maqolaning maqsadi: bokschi qizlarda texnika-taktik tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha integrativ ilmiy-metodik yondashuvni asoslash, adabiyotlar sharhini (mahalliy va xorijiy) berish hamda amaliy dastur modeli (indikatorlar, jadvallar, rasmlar)ni taklif etish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy va mahalliy manbalarda boksda taktika masalasi turlicha talqin qilinadi, biroq ularning barchasida taktika jangni iqtisodiy va maqsadli boshqarish mexanizmi sifatida e'tirof etiladi. Xalqaro boks qo'llanmalarida boksining o'z kuchli va kuchsiz tomonlarini hamda raqib uslubini tahlil qilgan holda reja tuzishi va jang davomida uni moslashtira olishi asosiy talab sifatida belgilanadi [AIBA, 2019, 75].

Muallif munosabatiga ko'ra, ushbu yondashuvning ustun jihati taktika tushunchasini faqat "hiyla" darajasida emas, balki energiya sarfi, psixologik holat va texnik arsenalni boshqarish tizimi sifatida yoritishidir, biroq u ko'pincha umumiy tavsiyalar bilan cheklanib, ayollar boksiga xos individual farqlarni, xususan ritm, emotsional barqarorlik va masofa sezgisini o'lchovli indikatorlar bilan bog'lash yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Murabbiylar uchun mo'ljallangan qo'llanmalarda ayollar janglarining raund formati va mashg'ulot jarayonining unga mos ravishda tashkil etilishi lozimligi qayd etiladi [Apprentice Coach Manual, 2016, 18], bu esa musobaqa reglamenti va tayyorgarlik mantiqini aniq bog'lab berishi bilan ahamiyatli, ammo texnika-taktik indikatorlarni, jumladan "qaror vaqti", "kombinatsiya ulushi", "kontr-hujum samaradorligi"ni monitoring qilish bo'yicha amaliy o'lchash protokollari yetarli darajada yoritilmagan. Olimpiya jangovar sportlarida taktik tayyorgarlikning umumiy tendensiyalarini tahlil qilgan tadqiqotlarda raqobatning kuchayishi, qoidalar o'zgarishi va jang jadallashuvi fonida taktika mashg'ulotlarining murakkablashgani ta'kidlanadi [Zadorozhna va boshq., 2023, 1–3]; muallif munosabatiga ko'ra, bu yondashuv taktikaning murakkab tizim ekanini va u tajriba, ssenariylar hamda amaliy "qaror mashqlari" orqali shakllanishini ko'rsatadi, biroq umumiy jangovar sportlar kesimida berilgani sabab boksga xos masofa, ritm va zarba-zanjir mexanikasi yetarli darajada chuqur ochildirilmagan. Ayrim ilmiy ishlarda, xususan yosh bokschi misolida, texnika-taktikaning doimiy murakkablashib borishi sabab jismoniy, taktik va psixologik tayyorgarlikni uyg'un rivojlantirish zarurligi asoslanadi [Nazarenko, 2017, 8], bu fikr ayollar boksida ayniqsa dolzarb bo'lib, faqat kuchga urg'u berish texnika-taktik nozikliklarni soyada qoldirishi mumkinligini ko'rsatadi, biroq mazkur tadqiqotlar ko'proq umumiy prinsiplar bilan cheklanib, ayollar boksida individualizatsiya bloklarini, masalan "templi press", "kontr-press" yoki "uzoq masofa" kabi dominant uslublarni aniq ajratib berishda yetarlicha chuqur emas.

Mahalliy mintaqaviy mualliflar bokschi qizlar tayyorgarligini maxsus va umumiy tayyorgarlik integratsiyasi sifatida talqin qilib, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlikning o'zaro yaqin bog'liqligini hamda sport formasini optimal holatda ushlab turish zarurligini ta'kidlaydilar [Turdiev (Karimovich) va boshq., 2022, 71–72], bu yondashuvning kuchli tomoni ayol bokschi larning morfofunktsional va psixologik farqlarini hisobga olishidir, ammo indikatorlar tizimi asosan umumiy jismoniy sifatlar bilan cheklanib, jangdagi taktik qarorlarni o'lchash komponentini kuchaytirish ehtiyoji mavjud. O'zbekiston mualliflari va amaliyotga yaqin maqolalarda zamonaviy boksda texnika-taktik tayyorgarlikni oshirish uchun raqibni tahlil qilish, video-trening, individual reja tuzish

va sparringni modellashtirishning ahamiyati ko'rsatib o'tiladi [Mamatqulov, 2025, 77], bu ayniqsa bokschi qizlarda "ko'rish–anglash–qaror–harakat" zanjirini tezlashtirishda video asosidagi feedbackning samaradorligini namoyon etadi, biroq mazkur ishlar ko'pincha qisqa formatda berilib, metodik dastur bloklarining aniqligi, xususan qadam-baqadam drilllar, yuklama dinamikasi va o'lchash protokollari yetarli darajada keng yoritilmagan. Metodik adabiyotlarda boshlang'ich bosqichda texnikani o'rgatishda individual yondashuvning yetishmasligi va murabbiylarning ko'pincha shaxsiy tajribaga tayanib qolishi tanqid qilinadi hamda o'yinli mashqlarni qo'llash diqqat va reaksiya tezligini oshirishi mumkinligi qayd etiladi [World Bulletin (WBML), 2024, 17], muallif munosabatiga ko'ra esa bu yondashuv bokschi qizlar bilan ishlashda ham dolzarb bo'lib, o'yinli va situatsion mashqlar psixologik siqilishni kamaytirishi va tezkor reaksiyani rivojlantirishi mumkin, biroq "o'yin" komponenti texnika aniqligiga putur yetkazmasligi uchun u aniq texnik-taktik maqsad bilan uzviy bog'langan bo'lishi shart.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Umumlashtiruvchi xulosa (muallif pozitsiyasi): Xorijiy manbalar taktika va musobaqa mantiqini yaxshi asoslaydi, biroq "o'lchash protokoli" ko'pincha umumiy xarakterga ega. Mahalliy ishlarda amaliy tavsiyalar (video, individual reja) ko'proq uchraydi, ammo ilmiy standartlar nuqtayi nazaridan indikatorlar va dizayning "qattiqligi"ni (aniq mezonlar, monitoring, ssenariylar ketma-ketligi) kuchaytirish zarur. Shu sababli ushbu maqolada texnika-taktika takomillashuvini indikatorlar tizimi, ssenariyli sparring, video-tahlil va tezkor feedback, shuningdek, individual uslubga mos mikro-dasturlar integratsiyasi orqali ta'minlash taklif etiladi. Ushbu maqola amaliyotga yo'naltirilgan konseptual-metodik formatda yozilgan bo'lib, taklif etilayotgan metodika bokschi qizlarning (o'smirlar/yoshlar yoki kattalar) tayyorgarligiga moslashtirilishi mumkin. Integrativ trening modeli to'rtta asosiy blokdan iborat bo'lib, u texnik baza va "toza ijro"ni (jab, cross, hook, uppercut zarbalari, slip, block, parry, step-back, clinchdan chiqish hamda qadam, burchakka chiqish va masofani ushlash kabi oyoq ishlash elementlari), mikro-taktik ssenariylarni ("uzoq masofa – jab nazorati", "pressingga qarshi kontr-hujum", "burchakka qamash va chiqish", "ritmni buzish"), qaror qabul qilish tezligi va taktik fikrlashni (murabbiy signaliga javob, stop-frame video tahlil, 3–5 soniyalik "mikro-oyina" ichida optimal harakat tanlash), shuningdek, transfer va sparringni boshqarishni (kontrolli va erkin sparring, musobaqa simulyatsiyasi) o'z ichiga oladi.

Qo'llanmalarda taktikaning bokschi va raqib uslubiga bog'liqligi alohida ta'kidlanganligi sababli [AIBA, 2019, 75], ssenariylar ham "tezkor kontr-bokschi", "templi presschi", "uzoq masofali jabchi" kabi raqib tipologiyalariga moslashtiriladi. Ayollar boksida raund formati va unga mos tayyorgarlik muhimligi qayd etilganligi bois [Apprentice Coach Manual, 2016, 18], transfer bosqichida raundlar kesimida vazifalar taqsimoti (1-raund: masofa, 2-raund: kontr-hujum, 3–4-raund: pressing va ritm) taklif etiladi.

Texnika-taktika takomillashuvini monitoring qilish maqsadida zarba aniqligi, kombinatsiya ulushi, himoya samaradorligi, qaror vaqti, kontr-hujum koeffitsienti va masofa nazorati indeksi kabi indikatorlardan foydalanish nazarda tutiladi. Ilmiy adabiyotlarda jismoniy, taktik va psixologik komponentlarni kompleks rivojlantirish zarurligi ta'kidlanganligi sababli [Nazarenko, 2017, 8], mazkur indikatorlar texnika, qaror qabul qilish va himoya elementlarini birgalikda baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bokschi qizlarda texnika-taktika takomillashuvi odatda "ijro → tanlov → moslashuv" ko'rinishidagi uch bosqichli mexanizm orqali amalga oshadi, bunda ijro sifati (toza zarba, toza himoya) motorika darajasini, tanlov sifati (qaysi zarbani qachon qo'llash) kognitiv darajani, moslashuv sifati esa (raqib o'zgargan taqdirda ham reja-ni saqlanishi yoki o'zgarishi) adaptiv darajani ifodalaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab mashg'ulotlar birinchi bosqichda, ya'ni "ko'p takror" darajasida to'xtab qoladi, natijada sportchi sparring jarayonida "nima qilishni biladi", biroq "qachon qilishni" kech anglaydi. Taktika bo'yicha qo'llanmalarda raqibning uslubi, kuchli va kuchsiz tomonlarini hisobga olish zarurligi bevosita ko'rsatilgan bo'lib [AIBA, 2019, 75], muallif pozitsiyasiga ko'ra, ushbu talabni amaliyotga samarali joriy etish uchun "raqib profili kartasi" va "ssenariyli sparring" tizimini qo'llash zarur.

Mahalliy tadqiqotlarda bokschi qizlarning texnika-taktik harakatlarni qo'llash xususiyatlari ularning fiziologik va psixologik farqlari bilan izohlanishi hamda tayyorgarlik jarayonida individual imkoniyatlarni hisobga olish muhimligi qayd etiladi [Turdiev (Karimovich) va boshq., 2022, 71], muallif pozitsiyasiga ko'ra esa ushbu yondashuvni yanada konkretlashtirish maqsadida individual "uslub profili"ni ishlab chiqish lozim bo'lib, bunda tezlikka tayangan kontr-uslub, bosim (press) uslubi va masofaga tayangan jab-uslub asosiy yo'nalishlar sifatida ajratiladi. Har bir uslubda texnik elementlar bir xil nom bilan atalgan taqdirda ham, ularning taktik vazifasi turlicha namoyon bo'ladi, masalan, jab-uslubda jab masofa nazorati quroli bo'lsa, press-uslubda u raqibni orqaga surish uchun "o'tish kaliti", kontr-uslubda esa "tuzoq" (feint) vazifasini bajarishi mumkin.



Zamonaviy metodik maqolalarda video-tahlil, raqibni o'rganish va individual reja asosida texnika-taktik ko'rsatkichlarni oshirish imkoniyati mavjudligi ta'kidlanadi [Mamatqulov, 2025, 77], muallif pozitsiyasiga ko'ra esa video-tahlilni faqat passiv "ko'rib chiqish" shaklida emas, balki faol "qaror mashqi"ga aylantirish maqsadga muvofiq bo'lib, bunda epizodni to'xtatish, sportchi tomonidan kamida ikki variantni taklif etish, murabbiy tomonidan "risk-foйда" nisbatini tahlil qilish va keyinchalik ushbu holatni ringda takrorlash qaror tezligini sezilarli darajada qisqartirishga xizmat qiladi. Metodik adabiyotlarda o'yinli mashqlar diqqat va reaksiya tezligini oshirishi qayd etilgan bo'lsa-da, metodik ta'minotning eskirganligi hamda individual texnikani o'rgatishda bo'shliqlar mavjudligi tanqid qilinadi [World Bulletin (WBML), 2024, 17], muallif pozitsiyasiga ko'ra esa o'yinli mashqlar bokschi qizlarda stressni pasaytirish va tezkor javob berish qobiliyatini oshiradi, biroq ular ringdagi aniq vazifalar bilan bog'lanmasa, texnika tarqoq holga kelib qoladi. Shu sababli o'yinli drilllar ham aniq taktik maqsadga xizmat qilishi, masalan, "signal – burchakka chiqish – jab – slip" kabi ketma-ketliklar asosida qurilishi lozim. Quyida keltirilgan natijalar 10 haftalik taklif etilayotgan dastur modeli asosida namunaviy tarzda bayon etilib, real tajriba-sinov o'tkazish uchun metodik "shablon" vazifasini bajaradi va mahalliy amaliyotda keng uchraydigan "video + individual reja + sparring simulyatsiyasi" g'oyasini tizimli ko'rsatkichlar bilan bog'lashga xizmat qiladi [Mamatqulov, 2025, 77].

1-jadval: 10 haftalik texnika-taktika takomillashtirish dasturi (blok va haftalik urg'u)

Hafta	Asosiy maqsad	Texnik blok	Taktik blok	Transfer (sparring)
1–2	Texnik baza, masofa	jab/cross aniqligi, oyoq ishlashi	"masofa nazorati"	kontrolli sparring: faqat jab va chiqish
3–4	Himoya + kontr	slip/block + javob zarbasi	"pressga qarshi kontr"	ssenariyli sparring: raqib pressing qiladi
5–6	Kombinatsiya	2–3 zarbali seriyalar	"burchakdan chiqish"	kontrolli sparring: burchak vazifalari
7–8	Ritm va feint	feint + zarba	"ritmni buzish"	yarim erkin sparring (cheklovli)
9–10	Musobaqa simulyatsiyasi	avtomatlashtirish	"raund reja"	to'liq sparring: raund vazifalari

Izoh: taktika "raqib uslubi + o'z uslubi" tahliliga tayanishi, energiyani iqtisodiy boshqarishi lozim [AIBA, 2019, 75].

2-jadval: Texnika-taktik indikatorlar: dastur oldi va keyingi ko'rsatkichlar (namunaviy)

Ko'rsatkich	Guruh	Dastur boshida	10-hafta oxiri	O'zgarish
Zarba aniqligi (%)	Tajriba	78.0	90.5	+12.5
	Nazorat	78.2	83.0	+4.8
Kombinatsiya ulushi (%)	Tajriba	34.0	49.0	+15.0
	Nazorat	33.5	38.0	+4.5
Himoya samaradorligi (%)	Tajriba	52.0	66.0	+14.0
	Nazorat	51.5	57.0	+5.5
Qaror vaqti (sek)	Tajriba	1.25	0.92	–0.33
	Nazorat	1.24	1.10	–0.14
Kontr-hujum koeffitsienti	Tajriba	0.28	0.41	+0.13
	Nazorat	0.27	0.32	+0.05

Quyida 20 nafar sportchi 2 guruhga bo'lingan deb olinadi (10 tajriba, 10 nazorat). Namuna sifatida tajriba guruhida video-tahlil, ssenariyli sparring va qaror mashqlari ko'proq qo'llanadi [Mamatqulov, 2025, 77]. Bunday "namunaviy" natijalar mantiqan shuni ko'rsatadiki, texnika-taktikani oshirishda faqat texnik takror emas, balki taktik ssenariy va transfer (sparringni boshqarish) hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki taktik tayyorgarlik "tajriba va vaziyatlar" orqali chuqurlashishi umumiy jangovar sportlar bo'yicha tahlillarda ham qayd etiladi [Zadorozhna va boshq., 2023, 1–3]. Kompleks yondashuv (jismoniy + taktik + psixologik) zarurligi ham alohida ta'kidlangan [Nazarenko, 2017, 8].

3-jadval: Mashg'ulot "ssenariy kartasi" namunasi (1 ta ssenariy)

Ssenariy nomi	Vaziyat	Maqsad	Asosiy harakatlar	Baholash mezonlari
"Pressga qarshi kontr"	raqib bosim bilan kiradi	raqib tempini sindirish	step-back + jab; slip + cross; clinchdan chiqish	kontr-hujum ulushi, qaror vaqti

Ayollar janglari formati va shunga mos ko'nikmalarni rivojlantirish zarurligi qayd etiladi [Apprentice Coach Manual, 2016, 18].

XULOSA

Bokschi qizlarda texnika-taktik tayyorgarlikni takomillashtirish faqat texnik elementlarni ko'paytirish bilan cheklanmay, ijro sifati, taktik tanlov va transfer integratsiyasini o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab etadi. Xorijiy manbalarda taktikaning energiya tejamkorligi hamda raqib uslubini hisobga olish zarurligi asoslangan bo'lsa-da [AIBA, 2019, 75], ayollar boksida ushbu yondashuv indikatorlar va individual uslub profili bilan yanada kuchaytirilishi lozim. Mahalliy amaliy ishlar video-tahlil, individual reja va ssenariyli sparringning samaradorligini ko'rsatmoqda [Mamatqulov, 2025, 77], biroq metodik dastur va monitoring protokollarini ilmiy "qattqlik" asosida ishlab chiqish hanz dolzarb hisoblanadi.

Taklif etilgan 10 haftalik modelda (A: texnik baza; B: mikro-taktika; C: qaror mashqlari; D: transfer) indika-torlar bo'yicha ijobiy siljishlar namunaviy tarzda qayd etildi. Kelgusida ushbu modelni real tajriba-sinov sharoitida yosh toifalari, vazn toifalari va sport staji bo'yicha tekshirish, natijalarni statistik tahlil hamda videometrik o'l-chovlar bilan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. AIBA. 2019. AIBA Coach Regulations Manual. [AIBA, 2019, 75].
2. Apprentice Coach Manual. 2016. Apprentice Coach Manual (Amateur Boxing). [Apprentice Coach Manual, 2016, 18].
3. Zadorozhna, O., va boshq. 2023. Tactical Training of Elite Athletes in Olympic Combat Sports: Practice and Experience. [Zadorozhna va boshq., 2023, 1-3].
4. Nazarenko, L. 2017. (ilmiy maqola/PDF). Boks mashg'ulotida texnik-taktik va psixologik tayyorgarlik integratsiyasi haqida. [Nazarenko, 2017, 8].
5. Turdiev (Karimovich), F., va hamkorlar. 2022. "Development of Physical and Technical-Tactical Preparation of Highly Skilled Boxer Girls." JournalNX. [Turdiev (Karimovich) va boshq., 2022, 71-72].
6. Mamatqulov, X. B. 2025. "Ways to Increase the Efficiency of Technical and Tactical Preparation in High-Qualified Boxers." [Mamatqulov, 2025, 77].
7. World Bulletin (WBML). 2024. "Methodology for Improving the Technical Training..." (maqola/PDF). [World Bulletin (WBML), 2024, 17].

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.